

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

4. Mirzatullaevna, A. R., Jabbarovich, E. U., Shuhratovna, M. G., Erikovna, N. F., & Majlimovna, P. M. (2019). Uso de tecnologias multimedia modernas en clases de idiomas extranjeros. Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades, 4(18), 80-85.
5. Mirzatullaevna, A. R., Jabbarovich, E. U., Shuhratovna, M. G., Erikovna, N. F., & Majlimovna, P. M. (2019). Using modern multimedia technologies in foreign language lessons. Religación: Revista de Ciencias Sociales y Humanidades, 4(18), 80-84.
6. Mirzatullaevna, A. R., Jabbarovich, E. U., Shuhratovna, M. G., Erikovna, N. F., & Majlimovna, P. M. (2019). Uso de tecnologias multimedia modernas en clases de idiomas extranjeros. Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades, 4(18), 80-85.
7. PRIMOVA, M. (2023). FRANSUZ VA O ‘ZBEK TILLARIDA XARAKTER IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI.
8. Klara, A., & Munisa, P. (2019). Main features of the formation and development of the gerund in English. Вопросы науки и образования, (7 (53)), 79-81.
9. Majlimovna, P. M. (2023). Phraseologism as a Linguistic Phenomenon.
10. Primova, M. M., & Olmasbekov, A. K. (2023). LATIN VOCABULARY IN MODERN ENGLISH. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 239-241.
11. Shukrullaevna, A. Z. (2022). New innovative methods in teaching english in medical universities.
12. Primova, M. (2024). INTERPRETABLE PHRASEOLOGICAL UNITS OF CHARACTER EXPRESSION IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES. Академические исследования в современной науке, 3(5), 130-134.
13. TYPES OF BRONCHIAL ASTHMA, CAUSES AND TREATMENT METHODS QQ Suyarovich Научный Фокус 2 (19), 807-809 2024
14. BRONXIAL ASTMA ALOMATLARI VA BELGILARI, ASORATLARI, TASHXIS QO ‘YISH, DAVOLASH USULLARI. A Jahongirmirzo, QQ Suyarovich INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE 3 (27), 110-112 2024
15. SOME NEWS FOR THE TREATMENT AND EARLY DIAGNOSIS OF ALZHEIMER’S DISEASE. Q.Q. Suyarovich INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 5 (45)2024, 227-229
16. NOORGANOGEN ELEMENTLARNI BA ‘ZI VAKILLARINING ODAM ORGANIZMIGA TA ‘SIRI HG-SIMOB ELEMENTI HAQIDA. AX Shuhrat o‘g‘li, QQ Suyarovich. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 5 (44), 147-149
17. BIOGEN ELEMENLARNI INSON ORGANIZMGA TA‘SIRI MN-. MARGANES ELEMENTI MISOLIDA. QQ Suyarovich INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3(31), 65-66 2024
18. INSONLAR ORASIDA O‘LIMGA OLIB KELUVCHI KASALLIKLAR X Akbaraliyev, S Sa’dullayeva, F Jalilov, Q Qalandarov

MUQIMIY ASARLARIDA IQTISODIY QARASHLAR

Narziqulov Rabbim

*Navoiy innavatsiyalar Unversiteti felologiya va tillarni
O‘qitish kafidrası o‘zbek tili va Adabiyot yo‘nalishi 3-kurs talabas*

Rajabov Faxriddin Toshpulatvich

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab “Muqimiy” taxallusi ostida ijod qilgan buyuk mutafakkir, zabardast davlat arbobi bo’lgan Muhammad Aminxo’ja Muqimiyning hayot yo’li, ijodi, asarlari hamda asarlarida iqtisodiy qarashlar haqida so’z yuritiladi. Muhammad Aminxo’ja Muqimiy o’z asarlarida XIX-XX asrlardagi jamiyatimizda ro’y bergan iqtisodiy-siyosiy holatlarni yaqqol tasvirlab bergan va asarlarida asosiy urg’uni o’sha davrdagi davlat rahbarlari hamda amaldorlarning nohaqliklari, oddiy aholiga qilgan zulmlariga qaratilgan.*

Kalit so’zlar: *Muqimiy, Qo’qon, satira, iqtisodiyot, jadidlar, hajviy asarlar, Buxoro, tanobchilar, Hakimjon, mustaqillik, madrasa, dehqon, adabiyot.*

Hammamizga ma’lumki, davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin jamiyatimizning har sohasida o’zgarishlar bo’lganidek, boy tarixga ega va mumtoz adabiyotimizda ham bir qancha o’zgarishlar yuz berdi. Jumladan, sobiq SSSR davrida yashab ijod qilgan jadidlarimiz o’z asar va g’azallari orqali o’sha davrda yuz bergan nohaqliklar va aholiga bo’lgan zulmlarni ochiqchasiga tasvirlab, ko’rsatib berganliklari sababli, sobiq SSSR davrida davlat hoyini deya qoralangan bo’lsa, davlatimiz Mustaqillikka erishgandan keyin ushbu buyuk jonkuyar va xalqchil adiblarimiz nomlari davlat arbobi sifatida qayta tiklandi. Ushbu adiblarimiz qatorida Muhammad Aminxo’ja Muqimiy ham alohida o’ringa ega. U o’z asarlarida XIX-XX asrlarda jamiyatimizda yuz bergan iqtisodiy-ijtimoiy holatlarni, amaldorlarning aholiga qilgan zulmlari va nohaqliklarini yaqqol tasvirlab bergan buyuk mutafakkirlarimizdan biri hisoblanadi. Bizning Mustaqillikka erishishimiz, porloq kelajagimiz va tinchligimiz uchun o’z jonini fido qilgan buyuk adib-u mutafakkirlarimiz bor ekan, nimaga biz ularning hayoti va ijodini o’rganmasligimiz, ularning hayot yo’llaridan ibrat olmasligimiz kerak?

Albatta biz bularni qilishimiz, ularning hayot yo’llarini o’rganishimiz va ularning asar va g’azallaridan kerakli xulosalarni chiqarishimiz darkordir va ushbu amallarni bajarish har birimizning burchimiz desak mubolag’a bo’lmaydi. Mustamlakachilik davrining ilk

yillarida ijod qilib ravnaq topgan, millat qalbidan chuqur joy egallagan, ibratli hayot yo’liga ega, uyg’onish davrining yirik namoyondalaridan biri hisoblangan Muhammad Aminxo’ja Muqimiy XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy

rivojlanishiga katta hissa qo’shgan adiblarimizdan biri hisoblanadi. Muqimiy uning taxallusi bo’lib, uning asl ismi Muhammad Aminxo’ja Mirzaxo’ja o’g’li. Muqimiy taxallusi “doimiylik” ma’nosini anglatadi. Muhammad Aminxo’ja Mirzaxo’ja o’g’li Muqimiy 1850- yilda Qo’qon shahrida Bekvachcha mahallasida, novvoy oilasida tug’ilgan. Otasi Mirzaxo’ja Mirfozil o’g’li novvoylik kasbi bilan shug’ullangan. Onasi Oyshabibi Sayidolim Nodirshayx qizidir. Mirzaxo’ja bilan Bibioysha oilasida beshta farzand bolib, Muhammad Aminxo’ja to’rtinchi farzand hamda yolg’iz o’g’il edi. Muqimiyning onasi Oyshabibi ajoyib ta’limga ega, og’zaki

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

ijodni juda yaxshi bilgan iqtidorli shoir bolgan. Aynan shu ayol tufayli Muqimiyda shoirona iqtidor rivojlanadi va onasi o‘glini Alisher Navoiy, Hofiz Jomiy kabi ijodkorlar qiyofasida sharq mumtoz adabiyoti bilan tanishtiradi va umrining oxiriga qadar ularga bo‘lgan muhabbati saqlanib qoladi. Muqimiy o‘zining birinchi she‘rini o‘n yoshida yozadi. Muhammad Aminxo‘ja “Muqimiy” taxallusi ostida 15 yoshidan boshlab ijod qilishni boshlaydi. 1865-yilda Muqimiyga ma‘nan va ruhan madad berib turgan onasi vafot etadi, natijada Muqimiyning she‘rlarida erta hayotdan ko‘z yumgan onasiga nisbatan motam soyasi seziladi. Muqimiy dastlabgi ta‘limini o‘z mahallasida joylashgan mulla Abduxalil maktabida oladi. Keyinchalik Qo‘qondagi “Hokim oyim” madrasasida hamda 1872-1873-yillarda Buxoroga borib “Mehtar ambar” madrasasida o‘qishini davom ettiradi. 1876-yilda shoir o‘qishini tugatib Qo‘qonga qaytib keladi va yer qurilishi mahkamasida mirzalik qiladi. Shu davrlar oralig‘ida Muqimiy uylanadi va afsuski o‘sha davrdagi yo‘qchilik va kambaga‘allik tufayli oilasi buziladi. Muqimiy moliyaviy jihatdan boy bo‘lmagan bo‘lsada, ma‘naviy jihatdan juda kuchli shaxs sifatida tanilgan. Muqimiy butun hayotini mutolaa va ijod qilishga bag‘ishlaydi. Muqimiy o‘zining asarlaridagi lirikasi va davrning hukmron boshqaruvchilarini va ularning olib borayotgan siyostlarini kuchli tanqid ostiga olib bir qancha hajviy asarlar, yumorlari bilan jamiyat qalbiga kirib boradi va shuhrat qozonadi. Muqimiydan bizgacha juda ko‘plab asarlari yetib kelmagan bo‘lsada, yetib kelganlarining orasida ham taqsiqga sazovorlari bir talaygina. Misol qilib aytadigan bo‘lsak, Muqimiy qalamiga mansub eng mashhur asarlardan biri hisoblanmish “Sayohatnoma”, iqtisodiyotga bevosita bog‘liq bo‘lgan “Tanobchilar” hajviyasi, shu jumladan “Loy”, “Burun”, “Ko‘saman”, “Bezgak” va “Otim” yumoristik she‘rlari shoir ijodining abadiyatini saqlab turuvchi asarlardir. Shoirning dunyoqarashlari va intilishlari bilan muhit o‘rtasidagi ziddiyatlar shoir ijodida tanqidni yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan asosiy omillardan biridir. Bu ko‘proq uning hajviy yo‘nalishda qilgan ijod na‘munalarida ko‘proq uchraydi. Muqimiy umri davomida 30 ga yaqin hajviy yo‘nalishda asarlar yaratgan. Shular jumlasidan, “Tanobchilar”, “Saylov”, “Devonamen”, “Ko‘samen”, “Loy”, “Shikoyati bezgak”, “Ta‘rifi pech” hajviy asarlari yaqqol misol bo‘la oladi. Adibning eng mashhur satiralaridan biri bu “Tanobchilar” hajviy asari hisoblanadi. Shoir 1876-yil Buxoroda madrasani tugatib Qo‘qonga qaytib kelganidan keyin yer qurilishi mahkamasida mirza lavozimida ishlab yurib, amaldorlarning xalqqa qilayotgan nohaqliklariga befarq qarab tura olmasdan ushbu hajviy asarini yozadi. Asarda kambag‘al chorakor dehqon mehnatidan o‘z manfaatlari uchun foydalangan, ularni aldab katta zarar yetkazgan Sulton Ali va Hakimjon kabi hiylakor mahalliy amaldorlar qiyofasi shoir tomonidan o‘tkir misralarda fosh etiladi. “Tanobchilar” satirik hikoyasi amaldorlar zulmidan aziyat chekkan dehqon arz-dodi bilan boshlanadi.

TANOBCHILAR Bo‘ldi, taajjub qiziq Hangomalar, Arz etayin endi yozib nomalar. Adl

qulog‘i-la eshit holimi, Zulm qilur, baski, menga zolimi. O‘n iki oyda keladur bir tanob, O‘zgalara rohat-u menga azob. Asarning boshlanishi shu davrdagi aholining ijtimoiy- iqtisodiy holatini tasvirlash bilan boshlangan. Yuqorida keltirib o‘tilgan misralardan amaldorlarning

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

aholiga qilgan zulmini ko'rishimiz mumkin. Bunda har 12 oyda keladigan tanob aholi va dehqonlar uchun yangi qiyinchiliklar keltirib chiqarishi haqida fikr bildirilgan.

Sulton Ali Xo'ja, Hakimjon ikav, Biri xotun, birisi bo'ldi kuyav. Ikkalasi bo'ldi chunon ittifoq, Go'yo xayol aylaki, qilmay nifoq. Osh yesalar o'rtada sarson ilik, X'oja – chirog' yog'i, Hakimjon -pilik.

Yuqoridagi misralarda Sulton Ali Xo'ja va Hakimjon ismli mahalliy ikkiyuzlamachi amaldorlarning bir biriga bo'lgan munosabati tasvirlangan. Bu orqali biz o'sha davrdagi ijtimoiy va davlat boshqaruvini ko'rishimiz mumkin. Bu ikki amaldor xalqdan o'z manfaatlari yo'lida xalqdan xiylakorona foydalangan hamda bu ishlarni amalga oshirishda bir-biri bilan aka-ukadan munosabtda bo'lgan. Amaldorlarning biri xiylagar va ikkinchisi gavdali, juda qo'pol, qo'rs shaxs sifatida tasvirlagan. Bunday salbiy illatlarga ega bo'lgan rahbarlar qo'l ostida yashagan xalq juda qiynalgan. Albatta bu misralarni bugungi kun misolida talqin qilib, ushbu xatolarni takrorlamaslikka harakat qilishimiz zarur chunki bunday illatlar mavjud bo'lgan jamiyatda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish dargumondir. Tanobchilar Sulton Ali Xo'ja va Hakimjon ikkalasining inoqlikda kelinkuyovga o'xshatilishi, pilik kabi bir-biriga bog'liq va bir-biridan manfaatdorligini “osh yesalar o'rtada sarson ilik” deya keltirilgan misralardan ham ko'rishimiz mumkin. Qisqacha qilib aytganda Muqimiy ushbu qisqa tanqidiy-hajviy asari yordamida o'zi yashagan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni, hiylakor, ikkiyuzlamachi amaldorlarning hiylalar-u, xalqqa qilgan zulmlari, iqtisodiy jinoyatlarini keskin tanqid ostiga ilib, o'z misralarida yoritadi. Asarni tahlil qilgan holda o'sha davrning iqtisodiy-ijtimoiy holatini baholashimiz mumkin. O'zining birlamchi ehtiyojlarini qondira olmayotgan xalqqa har 12 oyda tanob kelishi haddan tashqari yuk bo'lgan. Muqimiy bu tomonlarni ham hisobga olganini kuzatib, u bu Asar orqali o'zining iqtisodiy qarashlarini ham bildirib o'tgan degan xulosaga kelish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Muqimiy asarlarida o'zining iqtisodiy qarashlarini ham shoirona keltirib o'tgan. Bu bilan Muqimiy nafaqat adabiyotda balki O'zbekiston iqtisodiyotining tarixiy shakllanishida muhim ahamiyatga ega asarlar yozgan. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda Muqimiy hayoti va ijodini o'rganish, tahlil qilish va keng ommaga ayniqsa iqtisodchi kadrlarga kengdan o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Uning hayot yo'lidan ko'pgina o'rnak va saboqlar olishimiz, ayniqsa iqtisodchi kadrlar va rahbarlar o'rnak olsa bo'ladi va asarlaridan esa juda ko'plab iqtisodiyotga doir ma'lumotlar olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxmudov.N.M, Avazov.N.R, “Muqimiyning iqtisodiy qarashlari”. Ilmiy risola T.:”IQTISODIYOT”, 2021. – 56 bet.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muqimiy>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanobchilar>
4. Q. Pardayev Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili